

MA'NAVY-MA'RIFIY ISHLARNI OLIB BORISHDA MAHALLANING ROLI VA AHAMIYATI

Bozorov Dilshod

TDYU AL Talabasi.

dilshodbozorov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lgan, insonlarning yashash sharoiti ko'rsatuvchi omillar va tahdidlarni oldini olish, oilaviy jarayon munosabatlarga ijobiy va salbiy ta'siri.

Kalit so'zlar: Oila, loqaydlik, ijtimoiy tahdidlar, oilaviy munosabatlar, oilaviy muhitning o'rni.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, insonlarning yashash sharoiti va turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlarni oldini olish va bu holatda uning hal qilish yullari va mehanizmlarini ishlab chiqish muhimdir. Bu jarayonda ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar o'tkazib, insonlarni to'g'ri yo'lga ko'rsatish, bu ham qaysidir ma'noda mahalla institutlarining zimmasiga yuklangan vazifadir. Avvolombor tahdid tushunchasiga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Ho'sh, "tahdid" kuchmi yoki hodisa, omil yohud jarayon; ularning negizida nimalar turadi; u xavf – xatardan nimalari bilan farq qiladi, degan bir qator savollarga javob qaytarish kerak bo'ladi. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, bu tushunchaning maqomiga aniq javob qaytarish murakkab masala. Chunki uning real holatda faqat qurol vositasidagi ko'rinishini aniq tasavvur etish mumkin. Boshqa barcha holatlarda ko'zga ko'rinmas, mavhum, zimdan amal qiladi. Ammo ular qanday shakilda yuzaga kelishidan qat'i nazar, o'zining mohiyat mazmuniga ko'ra jamiyat taroqqiyotiga qarshi qaratilgan kuch hisoblanadi. Endi masalani yanada oydinlashtiradigan bo'lsak, ijtimoiy tahdidlarning oilaviy jarayon va munosabatlarga ta'siri va salbiy oqibatlar haqida atroflicha fikr mulohazalarga kelish mumkin.

Oilaviy munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatuvchi omil bu ijtimoiy tahdidlardir. Negaki, bu holatlar qay ko'rinishda sodir bo'lishiga bog'liq. Etibor berib qaraydigan bo'lsak, oilada giyohvandlik, alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish, jinoyatchilik kabi salbiy illatlar bo'lsa, bu jarayonlar oilani izidan chiqishiga sabab bo'ladi. Ya'ni bu holatlar o'z vaqtida aniqlanmasa, turli xil ko'ngilsiz holatlarga olib kelishi mumkin. ***“Ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”*** gi 2017-yil 18-iyuldagi 3160 sonli Qarorida oilaviy qadriyatlar va farzand tarbiyasiga etiborsizlik bugungi kunda oila sanalmish muqaddas qo'rg'onga qaratilgan eng xavfli ma'naviy-ma'fkuraviy tahdid deb tushunishimiz mumkin. Qarorda bu ham ichki tahdid ekani va buning oldini olishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirmasak, u tashqi tahdidlarni chaqirishi va uning oqibatida oila instituti ma'naviy tanazzulga uchrashi aytib o'tildi. Bu holatlar oilaning shakllanishi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari ostida, tahdidlarga kurashish uchun ***“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizni safarbar etamiz”*** degan edi. [1.14.]

Bu fikrlar yoshlar tarbiyasi, yoshlarning turli xil jinoiy to'dalarga kirib qolmasligi, agar bilimli, yetuk salohiyatli bo'lsa, bu salbiy jarayonlarga qatnashmasligi va agar shu holatlar kuzatilayotgan paytda unga yaqinlashmaslik nazarda tutilgan.

Agar oilada muhit yaxshi bo'lmasa, har doim tartibsizliklar bo'lsa, bu jarayonlar bolalarga, yosh avlod ongi va tafakkuriga ijobiy emas salbiy ta'sir ko'rsatadi. Negaki, oilada ota-ona giyohvand, jinoyatchi, alkogol mahsulotlariga ruju qo'ygan shaxslar bo'lsa, yoshlar dunyoqarashida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Oilalar buzilishi va bu holatga

ta'sir ko'rsatuvchi omillarga yani ichki ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga loqaydlik, beparvolik, befarqlik ta'sir ko'rsatadi. Negaki, agar oilada ota va ona loqayd, befarq har bir jarayonga beparvo bo'lsa bunday oilalarda birlik bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ***“Mamlakatimizdagi ijtimoiy–demografik ahvolning yana bir muhim xususiyati jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir. Oila – bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir”*** degan fikrlarni bildirgan. [2.253.] Bu fikrlarga atroflicha yondashadigan bo'lsak, bizning ta'lim-tarbiya jarayonimiz ham mana shu oiladan boshlanadi. Qanday tarbiya olganimiz oilaviy muhitga bog'liq.

Loqaydlik – inson, jamiyat, millat ishiga beparvo va sovuqqonlik bilan yondashish, munosabatda bo'lishni ifodalovchi ma'naviy - g'oyaviy illat. U muayyan kishining gohida o'z hayoti, o'zgalar faoliyati atrofida ro'y berayotgan voqea hodisalarga befarqlik va munosabatsizlik.[3.461.] Donishmandlardan biri ana shunday hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan. ***“Dushmanlardan qo'rqma, nari borsa ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma, nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq-ular seni o'ldirmaydi ham faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi”***. Har bir inson uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli e'tib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqorasi sifatidagi muqaddas burchimizdir. Shunday ekan oilaviy munasabatlarda loqayt va beparvo bo'lish bu juda katta salbiy oqibatlariga olib kelishi va ijtimoiy tahdidlar ham mana shuning oqibatida yuz berishi mumkin.

Buning oldini olish uchun oila va mahallada psixologik profilaktikani tashkil qilishimiz lozim. Oila juda ko'plab vazifalarni bajaradi. Eng muhim vazifalaridan biri bu yoshlarni tarbiyalash vazifasidir. ***“Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir”***[4.48.]. Ya'ni oilani bir binoga qiyoslasak, uning poydevori qanchalik mustahkam bo'lishi bizning ta'lim tarbiyamiz, xulq-atvorimiz va jamiyatda tutgan o'rnimiz va boshqa jarayonlar bilan belgilanadi. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakillantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'рни va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning haraktirini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr oqibat, or-nomus, va andish kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.[5.52.].

Ijtimoiy tahdidlarning ta'siriga qarshi tura olish uchun oilalarda muxitni shakillantirish va mahalla institutlarining roli va ahamiyatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Qanday ma'noda mahallani biz ijtimoiy tuzulma deb olib qarash, manashu tuzulmada oilalarda tahdid bo'lsa, birinchi navbatda psixologik profilaktika tadbirlarini va psixologik immunitetni shakillantirish lozim. Nega deganda, ijtimoiy jarayon va munasabatlarda agar mahalla shu kabi ko'plab tadbirlarni o'tkazsa insonlarni nima bezovta qilayabti, ularning ongi va dunyoqarashiga nimalar ta'sir ko'rsatmoqda degan bir qator savollarga yechim topilishi osonlashadi. Qandaydir ma'noda chet el mamlakatlarida psixologik profilaktika tadbirlari ko'plab o'tkaziladi, bizning mahallalarimizda ham mana shunday jarayon ham kuzatilishi lozim. ***“Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analарimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'z-o'zini boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda”***[5.59.]. Bu ham mahallani institutlariga berilayotgan e'tibor qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini bugungi kun isbotlab turibdi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Har bir mahallada dahdidlarga qarshi tura olish uchun psixologik profilaktika jarayonlari va oilada

psixologik immunitetni shakllantirish jarayoni muhim amaliy ahamiyatga ega. Nega deganda, agar ijtimoiy tahdidlarga moyil bo'lgan oilalar o'sha mahallalarda tashkil etilgan psixologka murojaat qilsa, qandaydir ma'noda, giyohvand, jinoyatchi, turli xil oqimlarga kirib qolgan shaxislar murojaat qilsa, o'ziga tegishli xulosalarni oladi, deb fikr yuritsa bo'ladi. Agar viloyat, shahar, tuman va shaharchalardagi mahallalarda ko'plab tadbirlar o'tkazilsa, turli xil muammoli savollarga yechim topilishi osonlashadi va bu jarayon ijobiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, **Birinchidan**, hozirgi globallashuv jarayonida har qanday ichki yoki tashqi tahdidlarga qarshi tura olish oliy vazifadir. **Ikkinchidan**, insonlarning bilim darajasi, saviyasi, ongi va tafakkurini o'stirishga imkoniyatlar yaratish. **Uchinchidan**, tahdidlarga qarshi turish uchun birinchi navbatda kitob o'qish va kutubxonalarni tashkil etish, insonlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. **To'rtinchidan**, qayerda ko'proq salbiy illatlar va shunga o'xshash xolatlar aniqlanadigan bo'lsa, bu jarayonlarga kechikmasdan, o'z vaqtida qarshi tura olish va kurashish lozim. **Beshinchidan**, oilada ijtimoiy munosabatlar va yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, bolalar o'z vaqtini nima ishlarga sarflamoqda, ularning yurishi va ta'lim olishida o'zgarishlar bo'ldimi, degan savolni qo'yib, uni hal qilish yo'llari va mexanizimlarini izlash lozim. **Oltinchidan**, Ota-ona bolalarning xulq-atvor va bilimiga e'tiborsizlik, beparvolik, befarqlik qilmasligi, o'z vaqtida kechikmasdan bu jarayonlarga munosabat bildirish maqsadga muvofiq bo'ladi. **Yettinchidan**, "mahalla-oila-maktab" uchligi asosida ko'plab amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni olib borish, targ'ibot va tashviqotlar qilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish. **Sakkizinchidan**, yoshlarni ongi, tafakkuri, xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi har qanday salbiy jarayonlar kuzatiladigan bo'lsa, bu holatda aslo kichikib ish tutish o'zini oqlamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . – T.: O'zbekiston NMIU, 2016. -56 b.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 326 b.
3. J. Yaxshilikov, N.Muhammadiyev. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi [Matn]: darslik. – T.: Cho'lpon NMIU, 2018. -684 b.
4. D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayeva. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2015. – 256 b.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.